



JAMOAT TARTIBI VA JAMOAT XAVFSIZLIGI: TUSHUNCHASI, TA'RIFI VA NAZARIY VA HUQUQIY JIHATLARI

Igor Viktorovich Komarov

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi ixtisoslashtirilgan o'quv
markazi jamoat xavfsizligi va huquqiy tayyorgarlik sikli
katta o'qituvchisi
Tel. 90 240 17 68

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21785209>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 27-iyul 2026 yil
Ma'qullandi: 29-iyul 2026 yil
Nashr qilindi: 31-iyul 2026 yil

KEYWORDS

jamoat xavfsizligi, jamoat
tartibi, ma'muriy-huquqiy
tartibga solish, tabiiy ofatlar,
favqulodda vaziyatlar,
xavfsizlik, faoliyat, davlat
organi, qonunchilik.

ABSTRACT

Ushbu maqolada jamoat xavfsizligi tushunchasi va mohiyati nazariy tahlil qilingan bo'lib, asosiy e'tibor jamoat xavfsizligi masalasiga, ya'ni shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy manfaatlarini to'sqinliksiz amalga oshirishni ta'minlash, xavf-xatarlarning oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan jamoat munosabatlarini himoya qilishning yetarli holati, ushbu yo'nalishda o'zaro maqsadli hamkorlikni tashkil etishda joylardagi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda jamoatchilik tuzilmalarining kuch va vositalarini muvofiqlashtirgan holda safarbar qilish masalalar tahlil qilingan.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar aholining tinch va osoyishta hayotini ta'minlash, jamiyatda qonunga hurmat va jamoat xavfsizligi madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan. Mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, jamoat tartibini saqlashning mutlaqo yangi mexanizmlarini joriy etish hamda aholida shaxsiy xavfsizlik hissinini shakllantirish borasida tizimli va samarali chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimida huquq-tartibotni ta'minlash va ushbu yo'nalishda o'zaro maqsadli hamkorlikni tashkil etishda joylardagi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda jamoatchilik tuzilmalarining kuch va vositalarini muvofiqlashtirgan holda safarbar qilish, shuningdek huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida ularning mas'uliyatini oshirish muhim hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, mamlakatda jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish hamda mazkur sohada davlat siyosatining ustuvor va istiqbolli yo'nalishlarini belgilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni qabul qilindi. Mazkur farmon bilan mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida "O'zbekiston Respublikasining Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi" [1] qabul qilinishi natijasida qonunchilikda mavjud ayrim bo'shliqlar bartaraf etildi, ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishni huquqiy tartibga soluvchi qonun loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish zarurati belgilab berildi. Shuningdek, jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash va probatsiya faoliyatini o'zaro muvofiqlashtirish, ommaviy tadbirlar vaqtida jamoat tartibini ta'minlashga jalb etiladigan

vakolatli organlar va idoralarning kuch va vositalarini muvofiqlashtirilgan holda qo'llash mexanizmini ishlab chiqish hamda uni doimiy ravishda takomillashtirib borish strategiyaning ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilandi. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda jamoat tartibi tushunchasining mazmun-mohiyatini aniqlash masalasida yagona yondashuv mavjud emasligi ushbu atamaga normativ-huquqiy ta'rif berish zaruratini yuzaga keltiradi. Jamoat tartibining mazmun-mohiyatini aniqlash va uni ilmiy jihatdan to'g'ri talqin etish zamonaviy ma'muriy-huquqiy fan oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Sotsiologik yondashuvga ko'ra, jamoat tartibi ijtimoiy kategoriya sifatida muayyan tarixiy davr yoki alohida davlat doirasida shakllangan iqtisodiy, mafkuraviy va ijtimoiy munosabatlar hamda ular o'rtasidagi aloqalar tizimini ifoda etadi. Ushbu ma'noda jamoat tartibi jamiyatning siyosiy tizimi, xususan, davlat boshqaruvi organlari faoliyatining muhim boshqaruv obyekti sifatida namoyon bo'ladi. Jamoat tartibining mazmunini to'g'ri anglashda ijtimoiy munosabatlar ishtirokchilarining ruhiy va hissiy holatini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxslar va ularning jamoalarining hissiyirodaviy hamda ruhiy holati ijtimoiy tizimning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Mazkur holat jamoat tartibini ijtimoiy-psixologik kategoriya sifatida baholashga asos bo'ladi, chunki jamiyat a'zolari boshqalarning xulq-atvorini amaldagi huquqiy va boshqa ijtimoiy normalar, avvalo axloqiy me'yorlar asosida baholaydi. Hozirgi bosqichda milliy huquqiy ta'limot va qonunchilikda jamoat tartibi tushunchasi, asosan, tor ma'noda qo'llaniladi. Bunday yondashuv amaliy ahamiyatga ega bo'lib, jamoat tartibini ta'minlash sohasida vakolatli bo'lgan huquqni muhofaza qiluvchi organlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda ayrim nodavlat subyektlarning vazifa va vakolatlarini aniq belgilashga xizmat qiladi. Ayniqsa, jamoat tinchligini saqlash, jamoat axloqini mustahkamlash, fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish kabi yo'nalishlarni jamoat tartibining ajralmas tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilishi uning ijtimoiy ahamiyatini yanada oshiradi. Bu esa jamoat tartibini ta'minlash faoliyatini faqat majburlov choralari bilan bog'lab qo'ymasdan, balki huquqiy tarbiya, profilaktika va ijtimoiy hamkorlik orqali amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi. Shu bois, jamoat tartibi tushunchasini talqin qilganda, uning tarkibiga nafaqat jamoat joylarida ro'y beruvchi munosabatlar, balki oshkoralik xususiyatiga ega bo'lgan boshqa ijtimoiy munosabatlarni ham kiritish muhim hisoblanadi. Bu yondashuv olimlar tomonidan ta'kidlanganidek, jamoat tartibiga tajovuz qiladigan ma'muriy huquqbuzarliklarning ko'pchiligi faqat ular sodir bo'lgan joy bilan cheklanmaydi, balki bu huquqbuzarliklarning oshkoraligi ijtimoiy va huquqiy ahamiyatga ega bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, jamoat tartibi tushunchasini ishlab chiqishda oshkoralik mezonini uning asosiy belgilovchi elementi sifatida qabul qilinishi kerak.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Darslik muallifi I. Ismailovning fikricha "Jamoat tartibini saqlashning samarali tashkil etilishi, eng avvalo, fuqarolarining shaxsiy xavfsizligi va hayotini himoya qilish, ularning huquq va erkinliklari hamda jamoat xavfsizligiga tahdid qilishi mumkin bo'lgan jinoiy va boshqa huquqbuzarliklar tajovuzlarni bartaraf etish imkonini beradi" [2]. Jamoat tartibini huquqiy va boshqa ijtimoiy normalar bilan tartibga solinadigan, o'rnatilishi, rivojlanishi va himoya qilinishi jamoat tinchligini saqlash, jamoat axloqini mustahkamlash, fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishni kafolatlaydigan jamoat munosabatlari tizimi sifatida e'tirof etadi. [8]. Jamoat tartibi faqat huquqiy kategoriya sifatida emas, balki huquqiy va boshqa ijtimoiy normalar ta'sirida shakllanadigan, o'rnatiladigan, rivojlanadigan hamda davlat va jamiyat tomonidan himoya qilinadigan ijtimoiy munosabatlardir. Mazkur yondashuv jamoat tartibining kompleks

mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Jamoat tartibi jamiyatning o'ziga xos ifodasi bo'lib, u jamiyatning qachon va qayerda vujudga kelganini, insonlarning birgalikdagi hayotini tashkil etuvchi shakl sifatida uning mazmunmohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Bugungi kunda davlat jamoat xavfsizligini ta'minlashning yetakchi subyekti sifatida ma'lum darajada mavhum va aniq bo'lmagan narsalarni himoya qiladi, degan tanqidlar tez-tez aytiladi. Biroq, ekspert va mutaxassislar buni ushbu masala bo'yicha ilmiy tadqiqotlarning yetarli emasligi bilan bog'lashadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF27-sonli Farmoni tasdiqlangan. "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi"da "jamoat xavfsizligiga" tushuncha berilgani bilan, ilmiy asoslash va zamonaviy shakllantirish, shuningdek, boshqa shunga o'xshash huquqiy hodisalar bilan chegaralanish va muayyan aloqalarni o'rnatish tadqiqot faoliyati uchun ham, huquq uchun ham, ijro amaliyoti uchun ham katta ahamiyatga ega. Jamoat xavfsizligini ta'minlashning ahamiyati shundaki, ushbu huquqiy hodisa davlatda sodir bo'layotgan murakkab jarayonlarni diqqat markaziga oladi. Umumiy yondashuv nuqtayi nazaridan murakkab, huquqiy hodisaning barcha zarur belgilariga ega bo'lgan "jamoat xavfsizligi" tushunchasini aniqlashda bir qator qiyinchiliklarga e'tibor qaratish lozim. Shu bilan birga, murakkab ijtimoiy jarayonlar va hodisalarni aks ettiruvchi "jamoat xavfsizligi" obyektiv ravishda aniq tarixiy (shuning uchun dinamik) xususiyatga ega va "tabiat - inson - jamiyat" tizimidagi o'zaro ta'sirning barcha shakllari va yo'nalishlari bilan chambarchas bog'liq [2]. Oddiy sharoitlarda ham, favqulodda vaziyatlarda ham jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi ilmiy va amaliy muammolarning dolzarbligi bir necha sabablarga ko'ra yuzaga keladi, xususan: jamoat xavfsizligini ta'minlash huquqiy tartibga solishning sifat jihatidan yangi bosqichiga ko'tarildi, ya'ni u "idoraviy huquqiy tartibga solish" degan qarashda namoyon bo'layotgan qobiqdan chiqdi; - davlat boshqaruvi organlari jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha vakolatli subyektlarning harakatlarini samarali amalga oshirish, muayyan hududda jismoniy va yuridik shaxslarga nisbatan cheklash choralarini qo'llash imkonini beradigan jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha maxsus choratadbirlarga "muhtojlik" sezmoqda; - faoliyati tegishli darajadagi xavfsizlikni, xususan, jamoat xavfsizligini ta'minlash zarurligini belgilaydigan obyektlar va hududlar tobora ko'payib bormoqda.

"Jamoat xavfsizligi" atamasi ilmiy bilimlarning turli sohalarida va ijro etuvchi hokimiyat organlari, shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning amaliy faoliyatida keng qo'llaniladi. Jamoat xavfsizligini hisobga olgan holda Avrutin Yu.Ye. uni "tabiiy ofatlar yoki boshqa maxsus sharoitlar bilan bog'liq holda, alohida sharoitlar yuzaga kelganda jamiyat uchun ortib borayotgan xavf tug'diruvchi obyektlardan foydalangan holda, huquqiy normalarga muvofiq shakllanadigan jamoat munosabatlari tizimi" deb ta'riflaydi [3]. S.I.Girkoning fikricha, jamiyatni ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish sifatida jamoat xavfsizligi juda muhim nazariy va amaliy muammo ekanligini ko'rsatadi, uni hal qilish, boshqa ijtimoiy munosabatlar qatori, mamlakatda jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha huquqni muhofaza qilish strategiyasini belgilashga bevosita bog'liq [4]. Professor L.L.Popovning fikricha, jamoat xavfsizligi deganda odamlar va umuman jamiyat uchun ortib borayotgan xavf-xatarni keltirib chiqaradigan obyektlar va obyektlardan foydalanishda, alohida sharoitlar, tabiiy ofat yoki ijtimoiy yoki texnogen xususiyatdagi boshqa favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda, huquqiy, texnik va boshqa turdagi normalarga muvofiq yuzaga keladigan jamoat munosabatlari tizimi tushuniladi [5]. S.V.Stepashin jamoat xavfsizligi - bu ijtimoiy munosabatlarning sifat holatini,

jamiyatning muayyan tarixiy va tabiiy sharoitlarda izchil rivojlanishini ta'minlash, turli omillar ta'sirida mazmuni va yo'nalishini o'zgartiradigan ichki va tashqi kelishmovchiliklardan kelib chiqadigan xavfxatarlardan himoya qilishdir, deb hisoblaydi [6]. Bizning fikrimizcha, jamoat xavfsizligi - bu normalarga rioya qilish va amalga oshirish natijasida shakllanadigan ijtimoiy-huquqiy kategoriya, daxlsizligi davlat, jamiyat tomonidan kafolatlangan jamoat munosabatlari tizimidir. Jamoat xavfsizligi, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini o'z ichiga oladi. Jamoat xavfsizligi odamlarning hayoti va sog'lig'iga, ularning mol-mulkiga tahdidlarning oldini olish yoki bartaraf etish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni qamrab oladigan ajralmas qismdir [7]. "Jamoat xavfsizligi" tushunchasi mazmunida olimlarning alohida guruhi uni himoya qilishning barcha obyektlarini belgilaydi, ya'ni: jamoat xavfsizligi - bu odamlarning hayoti va sog'lig'iga, moddiy boyliklar va atrofmuhitga tahdidlarning oldini olish va bartaraf etishni ta'minlaydigan organlar va vositalar to'plamidir, deb fikr bildirishadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Bizning fikrimizcha, jamoat xavfsizligining bunday ta'rifi juda oddiy ko'rinadi, chunki hatto eng "ideal politsiya organi"ning mavjudligi ham jamoat tinchligining to'liq holatini kafolatlamaydi. Jamoat xavfsizligini bir vaqtning o'zida bir nechta jihatlariga qarab belgilash maqsadga muvofiqdir, xususan: jamoat xavfsizligi - bu shaxs va jamiyat hayoti davomida vujudga keladigan, davlat organlari, jamoat tashkilotlari va fuqarolarning xavfsiz faoliyat yuritishi, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirishi, boshqaruv, ma'muriy-huquqiy va axborot-huquqiy jihatdan aniq belgilangan jamoat munosabatlarining ma'muriy va axborot huquqi normalari bilan himoyalangan holatidir. Jamoat xavfsizligi keng ma'noda davlat, jamiyatning normal faoliyat ko'rsatishini, har bir fuqaro uchun osoyishtalik muhitini ta'minlaydigan huquqiy, jumladan, huquqni muhofaza qilish choralari majmuidir. Tor ma'noda jamoat xavfsizligi - bu odamlar hayoti jarayonida vujudga keladigan mustahkam irodali ijtimoiy munosabatlar, ularning jamoat joylarida sivilizatsiyalashgan jamiyatning huquqiy normalari, qoidalari va urf-odatlarining amaldagi ko'rsatmalariga muvofiq muloqot qilish tartibidir. Jamoat xavfsizligi mazmuni tor ma'noda jamoat xavfsizligi bilan bog'liq munosabatlarni va davlat organlarining, shu jumladan huquqni muhofaza qilish organlarining amaliy faoliyatini tartibga solishga qaratilgan huquqiy va tashkiliy chora-tadbirlar majmuini o'z ichiga oladi. Jamoat xavfsizligi jamiyatda rivojlanib, huquqiy va texnik normalar bilan tartibga solinadigan va odamlar xavfsizligini ta'minlashga, odamlarning hayoti va sog'lig'iga xavfli tahdidlarning oldini olishga, mulkdorlarning mulkini saqlashga qaratilgan munosabatlardir. Yuqorida aytilganlarning mohiyati shundan dalolat beradiki, olimlarning zamonaviy ilmiy fikrlarida "jamoat xavfsizligi" tushunchasini ta'riflashda yagona qarash yo'q. Jamoat xavfsizligini ijtimoiy tizim hayotining sharoiti va holati sifatida belgilaydi, uning funksiyalarini amalga oshirish sifati bilan tushintiradi, shuningdek, ijtimoiy tizimning noqulay tashqi va ichki sharoitlarda barqaror davlatni saqlab turish, jamiyat xavfsizligini ta'minlash muammolarini hal qilish qobiliyati bilan tavsiflaydi. Jamoat xavfsizligining ma'muriy-huquqiy rejimi deganda, ijtimoiy obyektiv va ruxsat beruvchi, nazorat va majburiy usullardan foydalanadigan davlat organlari faoliyatining jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha huquqiy rejimi tushunilishi kerak. Jamoat xavfsizligini ta'minlashning ma'muriy-huquqiy rejimlarining o'ziga xos turlari va ularni amalga oshirish chegaralari ularning maqsadi, mamlakatdagi va muayyan mintaqadagi vaziyatning holatini hisobga olgan holda belgilanadi. Jamoat xavfsizligi quyidagi institutlarni o'z ichiga oladi: terrorizmga qarshi kurash instituti; ekstremizmga qarshi kurash instituti; jinoiy va boshqa

noqonuniy tajovuzlarga qarshi kurashish instituti; korrupsiyaga qarshi kurash instituti; aholini tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan himoya qilish instituti; noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish instituti; jamoat xavfsizligining ayrim turlarini (yong'in, kimyoviy, biologik, yadroviy, radiatsiyaviy, gidrometeorologik, sanoat va transport xavfsizligini) ta'minlash institutlari; jamoat xavfsizligini ta'minlashda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish instituti; ekologik xavfsizlik instituti; axborot xavfsizligi instituti; oziq-ovqat xavfsizligi instituti [8]. Shunga ko'ra, jamoat xavfsizligi davlat tomonidan ta'minlanadi va qo'riqlash obyektlariga xavf tug'diradigan vaziyat yuzaga kelganda, davlat hokimiyatining vakolatli organlari bunday xavflarni bartaraf etish uchun favqulodda, alohida, vaqtinchalik choralar ko'riladi.

XULOSA. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, barqaror jamoat tartibini ta'minlamasdan turib, aholi xavfsizligini sifatli ta'minlash mumkin emas. Shuning uchun jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi jamoat munosabatlarini tartibga soluvchi normativhuquqiy hujjatlar, ko'pincha "jamoat xavfsizligi" va "jamoat tartibi" atamalari o'zaro bog'liq tushunchalar sifatida qo'llaniladi.

"Jamoat tartibi" — bu shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, jamoat odob-axloqini mustahkamlash, hamda jamoat va shaxsiy osoyishtalikni ta'minlashga qaratilgan, huquqiy normalar orqali tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar majmui sifatida tushunilishi lozim. Shu bilan birga, jamoat tartibini ta'minlash tushunchasini faqat "jamoat joyi" bilan bog'lash shart emas, chunki u vakolatli davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan vakolatlarning chegaralarini belgilovchi mezon bo'lib xizmat qila olmaydi. Bu yondashuv jamoat tartibining nazariy va amaliyotdagi ahamiyatini keng qamrab olishga, shuningdek huquqiy muhofazani tizimli tarzda ta'minlashga imkoniyat beradi.

"Jamoat xavfsizligi" deganda esa shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy manfaatlarini to'sqinliksiz ro'yobga chiqarishni ta'minlashga, potensial yoki real xavf tug'diruvchi shart-sharoitlar va omillarning oldini olishga, mahalliylashtirishga va bartaraf etishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlarni yetarli darajada himoya qilish holati tushunilishi kerak. Bu ularning mavjudligiga asos bo'lib xizmat qiladi hamda umumiy va maxsus vakolatli davlat organlari tizimi, davlat va nodavlat tashkilotlari hamda fuqarolar faoliyati natijasida erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.11.2021yildagi "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiklash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari tugrisida"gi PF-27-son farmoni.
2. Ismoilov Ichki ishlar organlarining ma'muriy faoliyat. Darslik. - T., 2012.-B.197.
3. Avrutin Yu.Ye. K voprosu ob administrativno-pravovom rejime obespecheniya obshestvennogo poryadka // Administrativnoye pravo i protsess. 2013. № 7. S. 32.
4. Girko S.I. Obespecheniye obshestvennoy bezopasnosti v sisteme mer zashiti lichnosti, obshestva i gosudarstva: sostoyaniye, problemi, perspektivi // Administrativnoye pravo i protsess. 2009. № 5. S. 8.
5. Popov L.L. Administrativnoye pravo (voprosi administrativnoyurisdiktsionnoy deyatelnosti organov vnutrennix del). M.: Akademiya MVD SSSR. 1983. 280 s.
6. Stepashin S.V. Teoretiko-pravovie aspekti obespecheniya bezopasnosti v Rossiyskoy Federatsii: dis. ... dokt. yurid. nauk. SPb., 1994. 246 s.

7. Pozdnishev A.N. Institut gosudarstvennoy slujbi v sfere obespecheniya obshchestvennoy bezopasnosti (teoretiko-metodologicheskiye problemi): dis. ... dokt. yurid. nauk. M., 2003. 402 s.
8. Bosxamdjiyeva N.A. Administrativno-pravovie osnovi obespecheniya obshchestvennoy bezopasnosti v Rossiyskoy Federatsii: dis. ... dokt. yurid. nauk. M., 2013.

